



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 12 - may

216-10-0-Q/23

Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil

3-maydagi 183-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-maydagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 183-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan, qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-maydagi 183-sonli qaror ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari (keyingi o‘rinlarda - dasturlar) doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar 2023-yildan boshlab jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi;

dasturlar doirasida jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali keyingi yil uchun tadbirlarni shakllantirish va ularga ovoz berish jarayoni har yili noyabr-dekabr oylarida o‘tkazilishi;

2023-yilga mo‘ljallangan dasturlarni tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali shakllantirish, loyihalar to‘plami uchun ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori 8 mlrd so‘m etib belgilanganligi, dasturlarni moliyalashtirish uchun har yili Davlat byudjetidan kamida 4 trln so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi nazarda tutilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi

nizom tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari M.Fayziyev, viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari SH.Maxmudov, viloyat iqtisod va moliya boshqarmasi (B.Nizomiddinov) viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (Z.Yo'ldoshev):

g'olib mahallalar (qishloqlar) aniqlangandan so'ng bir hafta muddatda mazkur mahallalar (qishloqlar) hududida xo'jalik birlashmalari, aholi va tashabbuskor tadbirkorlar mablag'lari, homiylik xayriyalari, tijorat banklari kreditlari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarining manzilli ro'yxatini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritсин;

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda g'olib mahalla (qishloq)ning bosh reja sxemalari, batafsil rejalashtirish loyihalari hamda mahalla va qishloqlar markazining zamonaviy qiyofasi loyihalarining loyiha tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilishini va ular bilan bog'liq tadbirlar tegishli mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini ta'minlasin;

har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan dasturlar tadbirlarini moliyalashtirish bo'yicha ma'lumotlarni o'z rasmiy veb-saytlari va "Ochiq byudjet" axborot portaliga joylashtirib borsin;

har oy yakuni bo'yicha dasturlar doirasida bajarilgan ishlar va moliyalashtirilgan mablag'lar yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga hisobot berib borsin.

5. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi (Z.Eraliyeva) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda dasturlardagi tadbirlar orqali aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishini ta'minlash tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari M.Fayziyev zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev